



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com)

<https://oak.uz/pages/4802>

2024-yil. 10-son



Ulug' rus shoiri Aleksandr Sergeyevich
Pushkinning 225 yilligi nishonlandi



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulkayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Bibimariyam RAHMONOVA
Yulduz RAXMATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

- Nasiba Sabirova.** Xorazm dostonchilik maktablari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....3
- Bobonazar Murtazoyev, Feruza Hafizova.** "Ona tuproq qo'shig'i" da Surxon vohasining tarixiy talqini.....6
- Shaxlo Xalilova.** O'zbek va ingliz ertakshunosligida yetakchi obrazlarning o'rganilish masalasi.....9
- Азамат Матякубов.** Повышение научной грамотности на основе Международных программ оценки (PISA).....11

Tilshunoslik

- Dilmurod Ashurov.** Maqol va matallarning lingvokulturologik xususiyatlari («Alpomish» dostoni misolida).....13
- Ramziya Jo'rayeva, Minovvarxon Hojiyeva.** Muqimiy asarlarida qo'llangan leksemalarning semantik xususiyatlariga doir.....15
- Jobir Avriddinov.** Sadridin Ayniyning "Tojik-fors adabiy tilining yarim mufassal lug'ati" va uning lug'atshunoslikdagi ahamiyati.....17
- Aziza Butunbayeva.** Terminlarning mazmuni va mohiyati.....20
- Dilbar Niyazova.** Til egalarining nutqida yosh xususiyatini namoyon etuvchi lisoniy shaxs tiplari.....22
- Nazira Yangibayeva.** "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalidagi tilshunoslikka oid maqolalarga doir.....24

Adabiyotshunoslik

- Iroda Pardayeva.** She'riy parchalarda qofiya ziynati.....26

- Nilufar Chuliyeva.** "Go'r o'g'li yoxud hayot suvi" romanida zamon va makonning mifopoetik talqini.....28
- Амина Фаттахова.** Символика названия повести У. Умарбекова «Летний дождь».....30
- Мадина Касымова, Александра Екабсонс.** Лирический герой в поэзии Натальи Белоедовой.....32

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

- Zilola Salisheva.** Innovatsion yondashuvlar asosida xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatish vositalari.....34
- Fayzullo Begov.** Communicative competence for teaching foreign languages in ESP classes.....36
- Munisa Qosimova, Shahid Tasleem.** Adabiyot darslarida keys texnologiyasidan foydalanish.....38
- Умида Пулатова.** Протокол осмотра: некоторые аспекты обучения студентов-юристов его составлению.....40
- Shohida Abdullayeva.** Difficulties in translating metaphorical linguistic units in financial texts.....43

Tadqiqot

- Muxlisa Sabirova.** O'zbek internet matnlarida xalq maqollarining lingvomadaniy xususiyatlari.....46
- Madina Subxonova.** Diniy diskurs atamasi bayoni va uning badiiy kontekstda voqelanishi.....48
- Saidaxon Mamatkulova, Nargizaxon Ernazarova.** Poetik nutqda grammatik kategoriyalarni normativ qo'llashdan chetga chiqishlar.....50
- Gulasal Qayumova.** Eng qadimgi manbalarda ota fenomeni.....53
- Nilufar Karimova.** Munojot hamd g'azallar badiiyati.....56



Ilmiy-metodik elektron jurnal

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>

Feruza Yakubova. Telekorrespondensiya tayyorlash mahorati.....	58
E'tiborxon Baxriddinova, Maxbubaxon Solijonova. Kulgi kategoriyasining lingvistik va ijtimoiy-madaniy jihati.....	60
Dilshod Nabiyeu. Umumta'lim maktablarining ta'lim-tarbiya tizimida innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or tajribalar.....	62
Bakhtijon Isroilova. Important and particular aspects of communicative cognitive approach in english classes.....	65
Sevara Shodmonqulova. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini rivojlantirish masalalari.....	67
Shoxista Sotiboldiyeva. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tashkiliy pedagogik kompetentlikni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim omili sifatida.....	69
Adolat Bekturdiyeva. O'g'uz lahjasining o'ziga xos sintaktik qurilishi (sodda gaplar tahlili asosida).....	71
Sharofiddin Jalilov. Kamoliy va xorazm adabiy muhiti.....	73
Dildora Naimova. Talabalarning ingliz tilida multimadaniy kompetensiyasini takomillashtirishda kommunikativ interferensiya.....	75
Shoxina Baxadirova. Masofaviy ta'limning tillarni o'qitishda tutgan muhim o'rni.....	77
Asqar Xolmatov. OTM rahbarlik faoliyatida zamonaviy boshqaruvni rivojlantirishda xorijiy tajribalar.....	80
Xasan Ochilov. Oliy ta'lim muassasalarida rahbar kadrlarni boshqaruv kompetentligini takomillashtirishning amaliyotdagi ahamiyati.....	83
Maftuna Turdiyeva. Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi ota obrazlari.....	88
Shoxida Nazarova. Bilvosita nutqning sintaktik xususiyatlari (Nemis adabiyoti nasriy asarlari misolida).....	91
Anvar Muxitdinov, Shaхноза Саминжонова. Когнитивные единицы языка как объект исследования в современном медиапространстве.....	94
Мохинурхон Иброхимова. Невербальные средства общения в художественном тексте.....	97
Sitora Samandarova. Lexicographic study of diplomatic terms in english-uzbek languages.....	99
Sardor Surmanov. Exploring the impact of authentic listening materials on fluency in intermediate learners.....	101
Mekhrangiz Kurbonova. The role of animation in improving listening skills in school.....	105
Mahliyo Pardayeva. Linguopragmatic analysis of some word combinations.....	107

Muhtarama Khalilova. Linguocultural study of the concept of "father".....	110
Yulduz Rabbimova. Significance of authentic materials in enriching learners' vocabulary.....	113
Farangiz Tursunova. Theoretical prerequisites for the study of the conceptualization of facial expressions and facial movements in linguistic.....	115
Fazilat Sharipova. The expression of implicit meaning in religious novels in English literature.....	118

Kichik tadqiqot

Fotimaxon Baxtiyarova. Astronomiyaga oid terminlarning semantik maydon munosabati.....	120
Ma'muraxon Maxammatova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda fikrlar geniralizatsiyalashi jarayoninig ahamiyati.....	122
Shahlo Xasanova. Ijtimoiy tarmoqda elektron o'yinlar madaniyati: muammo va yechim.....	124
Nigora Nazarova. Ingliz, o'zbek tillarida antroponimlarning yasash aspektlari.....	126
Mirziyo Qobilov. Ilmiy hamda tibbiy diskursda maqol hamda iboralarning o'rni.....	127
Charos Eshmamatova. Millat kelajagi yoshlar qo'lida.....	129
Mahliyo Xudoyberdiyeva. "Urush bolalari" she'rining tahlili.....	131
Amirxon Ne'matov. G'ayritabiiy elementlar va an'anaviy e'tiqodlar.....	133
Maftuna Majidova. Noverbal muloqotning zamonaviy ko'rinishlari.....	135
Tohir Aglamov. O'zbek masalchiligi taraqqiyotida Abdulla Avloniy ijodining o'rni.....	137
Shaxloza Karimova. Kvantitativlikning leksik sathda o'rganilishi.....	138
Н.Т. Хамидова. Лексический аспект медиатизации юридических терминов в СМИ.....	140
Санобар Рузикулова. Фонетическое членение речевого потока.....	141
Абдухалил Атаматов. Методика развития профессиональной подготовки студентов высших учебных заведений на основе инновационных подходов.....	144
Shakhzoda Qalandarova. The influence of local dialects on the development of American English...	146
Madina Khasanova. Improvement of foreign language teaching methodology through modern pedagogical approaches.....	149
Aynura Axmedova. Toshkent shahri shevasidagi inglizcha o'zlashmalar xususida.....	151
Dilnoza Saidova. Voice forms of verbs in english....	154
Anjela Kuganova. The main aspects in translating scientific and technical texts.....	157

REFERENCES:

1. Azamatovna, S. N. (2020). TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN STUDENT. International Engineering Journal For Research & Development, 5(CONGRESS), 3-3.
2. Cotton David, Falvey David, Kent Simon Kent. Language Leader Intermediate. Pearson Education Limited, 2008.
3. Nizamova, R. . (2021). The role of communicative competence in teaching foreign languages in ESP classes. Middle European Scientific Bulletin, 12, 307-310. Retrieved from <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/553>
4. Timashkova, L.N. Formation of communicative competence of pedagogical university students / L.N. Timashkov. -Minsk: MSLU, 2001. –p 23

Munisa QOSIMOVA,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi
munisakosimowa77@gmail.com

Prof. Shahid TASLEEM,

Jamia Millia Islamia A Central University
shahidtasleem@hotmail.com

ADABIYOT DARSLARIDA KEYS TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: adabiyot darslarida keys texnologiyasidan foydalanishda o'quvchilar turli vaziyatlar bilan tanishadilar, mushohada qiladilar, jamoa bilan ishlashni, vaziyatlarni tahlil qilishni, qarorlar qabul qilishni, mustaqil fikrlashni, o'z-o'zlarini tanqid qilishni, ijodiy fikr yuritishni o'rganadilar. Mazkur maqolada, 11-sinf darsligida keltirilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan keys namunasi keltirilgan, jumboqli matn orqali vaziyatga qiziqtirilib, so'ng tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *case-study, vaziyat, g'oya, tahlil, tanqid, ma'lumot, matn, badiiy asar, yechim.*

Аннотация: с помощью кейс-технологии студенты знакомятся с различной информацией, решают проблемы, учатся работать с обществом, анализировать литературу, принимать решения, мыслить самостоятельно, критиковать себя, мыслить творчески. В данной статье в учебнике для 11 класса рассматривается статья Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу Билиг» на примере кейса, текста-головоломки и анализируется ситуация.

Ключевые слова: *кейс, ситуация, идея, анализ, критика, информация, текст, художественное произведение, решение.*

Annotation: using case technology, students get acquainted with various information, solve problems, learn to work with society, analyze literature, make decisions, think independently, criticize themselves, and think creatively. In this article, in the 11th grade textbook, the article from Yusuf Khos Hajib's "Kutadgu Bilig" is interested in and analyzed the situation through a case example, a puzzle text.

Key words: *case-study, situation, idea, analysis, criticism, information, text, artistic work, solution.*

Keys-stadi usuli (inglizcha case-study – vaziyat, holatni o'rganish, tahlil qilish usuli) – real vaziyatni turli tavsiflardan foydalangan holatda o'quvchilarda aniq ko'nikmalarni shakllantirish texnikasi. O'quvchilar vaziyatni tahlil qilishlari, muammo mohiyatini tushunishlari, mumkin bo'lgan yechimlarni taklif qilishlari va ularning eng yaxshilarini tanlashlari kerak. Keyslar real vaziyatga aloqador va unga yaqin bo'lgan materiallarga asoslanadi. Aniq vaziyatlar usuli bo'lgan "case-study" o'yinli bo'lmagan faol o'qitish uslubiga kiradi. Bu uslubning diqqat markazida axborot olish turadi. Uslubning maqsadi esa o'quvchilarni mustaqil ma'lumot izlashga, ularni matn bilan ishlashga, ma'lumotlarni to'plashga, tizimlashtirishga va tahlil qilishga o'rgatishdir.

O'quvchilar bilan bu usuldan foydalanishda guruhli

faoliyatdan ham yoki individual tarzda ham foydalanish mumkin. Shu bilan bir qatorda, keys mohiyatidan kelib chiqib, uni o'quvchilarga og'zaki yoki yozma shaklda taqdim qilishimiz mumkin.

Biz keys-stadi usulining g'oyasini quyida ko'rinishda havola qilamiz:

- Usul bilim olishga mo'ljallangan bo'lib, qo'yilgan savolga yagona javob emas, bir necha javoblardan iborat bo'lishi mumkin, ahamiyatlisi javoblarning haqiqatni qaror toptirishdagi raqobatbardoshligi.

- Ta'lim berishdagi urg'u tayyor bilimlarni olishga emas, balki yaratishga, talaba va o'qituvchining hamkorlikda ijod qilishiga qaratiladi. Shu jihatidan ham keys-stadining an'anaviy uslublardan tubdan farqi talaba va o'qituvchining muammoni muhokama qilishda teng huquqliligidadir.

- Bu uslubdan foydalanishning natijasi nafaqat bilim olish, balki kasbiy faoliyatini rivojlantirish hamdir.
- Keys-stadi texnologiyasida esa real hayotda namoyon bo'ladigan, talaba olishi kerak bo'lgan bilim va amaliy malakalar majmuasida aks etadigan aniq vaziyat modeli ishlab chiqiladi (bu xoh o'quv jarayoniga, xoh adabiyot fani namunasiga misol bo'la olsun). Bunda o'qituvchi savollarni tayyorlovchi, javoblarni belgilovchi, umuman olganda, jarayon boshqaruvchisi ro'lda chiqadi.

- Bunda his-tuyg'u, ijodiy raqobat, hatto keys muhokamasidagi spektaklga o'xshab ketadigan kurash jarayoni orqali namoyon bo'ladi.

Keys-stadi namunalarini o'quvchilarga taqdim qilayotganimizda xushyor bo'lishimiz, o'rinli, tahlilga torta oladigan keys taqdim qilishimiz lozim. Keyslar bir necha jumladan, bir necha sahifagacha hajmda bo'lishim mumkin.

Yaxshi keyslar quyidagi talablarga javob bera olishi zarur:

- ✓ Vazifaning maqsadga aniq mos kelishi.
- ✓ Mos qiyinchilik darajasiga ega bo'lishi.
- ✓ O'tilayotgan mavzu orqali yechim topish imkoniyatining mavjudligi.
- ✓ Tahliliy fikrlashni rivojlantirishi.
- ✓ Munozara uyg'otishi.
- ✓ Yechimga ega bo'lishi.

Keys-stadi texnologiyasini adabiyot fani bilan bog'laydigan bo'lsak, biz talabalarga ikki xil shaklda taqdim qilishimiz mumkin.

1. O'quv jarayoniga asoslanib, keysni maktab faoliyati bilan bog'lagan holatda.
2. Badiiy asar misolida.

Agar biz keys usulini qo'llamoqchi bo'lgan badiiy asarni maktab darsligidagi keltirilgan parcha asosida tashkillashtiradigan bo'lsak, o'sha mavzudan bir dars oldin o'quvchilarga taqdim qilishimiz joiz. Agar tashkillashtirgan darsimizdan keyin o'quvchining diqqatini o'tilgan asarning to'liq shakliga qaratmoqchi bo'lsak, mavzu o'tilgandan so'ng bu usulni o'quvchilarimizga taqdim etishimiz lozim. Zero, keys-stadi namunasi o'quvchiga xoh yozma, xoh og'zaki shaklda taqdim etilsin, undagi holat jumboq sifatida beriladi va bu o'quvchining qiziqishi ortishiga sabab bo'ladi.

"Case-study" uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba" kitobida [A.Abduqodirov va boshqalar] pedagogik vaziyatlarni – keyslarni tahlil qilishga doir vazifalar va ularni hal etish namunalari keltirilgan:

Keys. Ota-onalar bolalari bilan muloqot paytida ko'pincha ularni boshqa bolalar bilan taqqoslaydilar.

Shirinning onasi, o'z qizining xulqidan xursand, ko'picha u: "Sen borgan sari aqlli bo'lyapsan. Sen hammadan ham yaxshisan", "Sen eng chiroylisan", – deydi.

Dilnozaning onasi esa qiziga "Hamma bolalar

ham bola, faqat sen mening tentagimsan", "Qaragin, Dilfuza qanday aqlli qiz. U hamma ishni eplaydi, senda esa, hech nima chiqmaydi", kabi jummalarni ishlatadi.

Muammo:

1. Ikkala ona ham o'z bolalariga yaxshilik istaydilar, lekin ularning qaysi biri tarbiyada yaxshiroq natijaga ega bo'ladi?

2. Bolalarning xulqini "lohiyalash" yo'nalishi onalarning shaxsiy xususiyatlariga bog'liqmi?

Yechish. Ikkala ona ham o'zlarining qizlarini boshqa bolalar bilan taqqoslaydilar, lekin birinchi ona ijobiy taqqoslashlardan, ikkinchi ona esa salbiy taqqoslashlardan foydalanadi. Shu bilan birga Shirin va Dilnozaning xulqlarini "loyihalash" turlichadir.

Agar ona o'ziga ishongan bo'lsa, u holda, odatda, u o'zining bolasini maqtaydi va uni boshqa bolalardan ijobiy tarzda ajratadi. Bu bolaning ijtimoiy mavqesi o'sishiga va o'zining tengqurlari bilan o'zaro munosabatidagitizimda yaxshi o'rin egallashiga imkon beradi. [A.Abduqodirov va boshqalar].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, keyslarni kelgusi darsga qiziqtirish uchun o'quvchilarga taqdim qilishimiz mumkin. Bunga namuna sifatida 11-sinf darsligidagi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarini keltiramiz. O'quvchilarni 6 tadan ko'p bo'lmagan kichik guruhlariga bo'lamiz. Har qaysi guruhga alohida keyslar tarqatamiz, keyingi darsga tayyorgarlik ko'rib kelishlari uchun.

Keys. Oyto'ldi o'zi davlat ekanligini aytadi

Elig bir kuni o'zi yolg'iz o'ltirib,
Oyto'ldini chorladi, u juda xursand edi.

Oyto'ldi kirib qarshisida tik turdi,
Elig imladi: Kelgin, o'tirgin, – dedi.

Oyto'ldi (yonidan) to'p chiqardi, (ostiga) qo'ydi,
ko'rgin,

Uni bosib ro'paraga o'ltirdi, ko'rgin.

Elig turli-tuman bilimlar sohasidan savol qildi,

Oyto'ldi so'zga til ochdi, javob berdi.

Elig sevindi, ko'rgin, uning chehrasi ochildi,

Uni ko'rgan Oyto'ldi ko'zlarini yumib oldi.

Elig so'zdan to'xtadi, hech indamadi,

Oyto'ldi ham ko'zini yumdi, hech ochmadi.

Elig o'z so'zini davom qildirib yana so'ray boshladi,

Oyto'ldi javob berdi, u yuzini tumurib oldi.

Elig iltifot bilan boqdi, o'zini mamnun qildi,

Oyto'ldi tezlikda yuzini o'girdi.

Eligning juda qahri keldi, yuzidan g'azab yog'di,

Dedi: Ey, shoshqaloqlik kishi uchun yaramasdir.

Kuntug'dining so'zi

Hali sendan xizmat ko'rmasdan iltifot qildim,

Senga (iltifot bilan) joy bersam, meni oyoq osti qilding.

Sen to'p qo'yib darhol o'ltirishga hozirlanding,

Bu sen uchun o'ltiradigan joymi, menga (shuni) aytib ber?

Muammo. 1. Oyto'ldining eligga munosabatini izohlang.

2. Elig Oyto'ldining bu qilmishiga qanday jazo berdi?

3. Nima uchun bu qahramonga Oyto'ldi ismi berilgan?

Yechim. 1. Oyto'ldi shunday javob beradi: Mening senga namoyish qilganlarim bu mening odatlarim edi. Menga joy berding, men o'tirmadim, chunki menga o'rin yo'q, buni tushun dedim. Yerga to'p qo'yishimning ham siri bor ediki, men qandayligimni senga ko'rsatmoqchi edim. Koptok o'rinsiz dumalab yurgani kabi men ham o'rinsiz kezaman... Oyto'ldi shu tarzda o'z sifatlarini harakatlari bilan bayon qilganligini, unga ishonib bo'lmasligini ta'kidlaydi.

2. Elig Oyto'ldining izohlarini eshitgach unga jazo tayinlamaydi.

3. Oyto'ldi aytdi: Mening otimni, Dono (kishi) qiliqlarimni oyga nisbat berib atagan. Bu ay tug'sa, ashnu edi az tug'ar, Kuninga beduyur, yuqaru ag'ar.

To'lun bo'lsa, to'lsa, ajunda yarur,
Ajun xalqi andin yaruqluq bulur.
Tugal bo'lsa, ko'r, ay bu ag'sa adiz,
Yana erlu to'rchir, ketar ko'rk mengiz.
Yaruqluqi aksur, yana yo'q bo'lur,
Tug'ar kecha azin yana-o'q to'lur.
Mening bu o'zum ma bu yanglig'turur,
Ara bar bo'lur-men, ara yo'q bo'lur...

Shu tartibda keyingi guruhlariga ham asardan shunday keyslar tarqatiladi, bu kelasi darsning qiziqarli hamda samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Case-study o'quv mashg'ulotlarida ko'rib chiqiladigan, dalilli materiallar asosida yaratiladigan o'quv vaziyatidir. Bunda o'quvchilar turli vaziyatlar bilan tanishadilar, mushohada qiladilar, jamoa bilan ishlashni, vaziyatlarni tahlil qilishni, qarorlar qabul qilishni, mustaqil fikrlashni, o'z-o'zlarini tanqid qilishni, ijodiy fikr yuritishni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Abduqodirov va boshqalar. "Case-study" uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – Toshkent: "Tafakkur qanoti", 2012. 55-bet.
2. Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2016. 16-bet.
3. Case study as literature. Mikaela Öberg EKP 14 Halmstad University ETN, Halmstad Sweden mikani14@student.hh.se.

Умида ПУЛАТОВА,
и.о. доцента кафедры узбекского
языка и литературы
Ташкентского государственного
о юридического университета

ПРОТОКОЛ ОСМОТРА: НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ-ЮРИСТОВ ЕГО СОСТАВЛЕНИЮ

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы подготовки будущих специалистов, в частности, юристов, а также обосновывается необходимость формирования у них профессиональных навыков, связанных с созданием юридических документов. В частности, в статье внимание уделяется некоторым аспектам обучения студентов-юристов составлению протокола осмотра.

Ключевые слова: навыки, специалист, теория, практика, учебный процесс, процессуальный документ, протокол осмотра.

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak mutaxassislarni, xususan, yuristlarni tayyorlash masalalari ko'rib chiqilgan, shuningdek, ularning yuridik hujjatlarni yaratish bilan bog'liq kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish zarurati asoslantirilgan. Xususan, maqolada yurist talabalarga ko'zdan kechirish bayonnomasini tuzishni o'rgatishning ayrim jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ko'nikmalar, mutaxassis, nazariya, amaliyot, o'quv jarayoni, protsessual hujjat, ko'zdan kechirish bayonnomasi.

Annotation: this article discusses the issues of training future specialists, in particular lawyers, and also substantiates the need to develop their professional skills related to the creation of legal documents. In particular, the article pays attention to some aspects of teaching law students how to draw up an inspection report.

Key words: skills, specialist, theory, practice, educational process, procedural document, inspection report.